

**AL-ALAQ SURASINING 1-5 OYATLARI TARJIMASINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

**G.J.Mexmonaliyeva**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xorijiy tillar magistratura bo‘limi 2-bosqich magistranti,

**O‘.Xudoynazarova**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti (PhD) f.f.f.d katta o‘qituvchi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asosiy e’tibor Qur’oni Karimning ta’lim va tarbiyaga oid surasiga qaratilgan. Xususan, “Alaq” surasining 1-5 oyatlarining ingliz va o‘zbek tillariga bir necha tarjimonlar tomonidan tarjimalari bo‘yicha qiyosiy va leksik-semantik tahlillar o‘tkazildi. Ushbu tahlilning maqsadi turli tarjimonlar oyatlarning ma’nolarini, xususan, lug‘aviy tanlovlar, semantik farqlar va stilistik o‘zgarishlar nuqtai nazaridan qanday qilib berganligini tekshirishdan iborat. Tarjimalarni solishtirish orqali Qur’onning ma’naviy habarini turli til va madaniy kontekstlarda yetkazishda tarjimonlar tomonidan qo‘llaniladigan turli yondashuv va talqinlar haqida tushunchaga ega bo‘lish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** leksik-semantik tahlil, deskriptiv tarjima, ekvivalentlik, adekvatlilik, denotative va konnotative ma’no.

**Abstract:** This article focuses on a surah of the Holy Koran pertaining to education and upbringing. Specifically, a comparative and lexical-semantic analysis was conducted on the translations of verses 1-5 of Surah Alaq into English and Uzbek by several translators. The aim of this analysis is to examine how different translators have rendered the meanings of the verses, particularly in terms of lexical choices, semantic nuances, and stylistic variations. By comparing the translations, we can gain insights into the diverse approaches and interpretations employed by translators in conveying the spiritual message of the Koran in different linguistic and cultural contexts.

**Key words:** lexical-semantic analysis, descriptive translation, equivalence, adequacy, denotative and connotative meaning,

**Аннотация:** В этой статье основное внимание уделяется суре Священного Корана, касающейся образования и воспитания. В частности, был проведен сравнительный и лексико-семантический анализ переводов аятов 1-5 суры Алак на английский и узбекский языки несколькими переводчиками.

Целью данного анализа является изучение того, как разные переводчики передали значения стихов, особенно с точки зрения лексического выбора, семантических нюансов и стилистических вариаций. Сравнивая переводы, мы можем получить

представление о различных подходах и интерпретациях, используемых переводчиками при передаче духовного послания Корана в разных языковых и культурных контекстах.

**Ключевые слова:** лексико-семантический анализ, описательный перевод, эквивалентность, адекватность, денотативное и коннотативное значение.

### **Kirish**

“Ilm o‘z egasini payg‘ambarlardan keyingi eng yuqori martabaga erishtiradi”-deydi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf hazratlari. Zero Islom dinida insonni ilm olishi ta‘lim va tarbiyaga e‘tibor berishi va komil inson bo‘lib kamol topishiga e‘tibor qaratilganini Qur‘oni Karimning 1- nozil bo‘lgan oyatida Alloh taoloni “iqro” ya‘ni “O‘qing” deb vahiy keltirilishidan bilib olish mumkin. Qur‘oni Karimning ma‘nolar tarjimasini tarjima qilishda, avvalo, tarjimondan islom diniga oid ko‘plab ma‘lumotlarni, tarixini diniy aqidalarini o‘rganganishi, va o‘zga til strukturasi va til imkoniyatlari, qolaversa, diniy va madaniy kelib chiqishini hisobga olgan holda tarjima qilinishi talab etiladi. Al-alaq surasining tarjimasini tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimonlar nihoyatda ziyraklik va tarjimonlik mahorati bilan tarjima qilganliklarini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

### **Metodlar**


Payg‘ambarimiz Muhammad (S.A.V)ga nozil bo‘lgan dastlabki oyatdan oq ma‘rifatga, ilmga, kamolotga undov shaklida “O‘qing!” – degan xitob yangragan edi Alaq surasida. “Qur‘on”da ham ramziy ma‘no bo‘lib, uning ma‘nosi ham “o‘qimoq”, “qiroat qilmoq”, “jamlamoq” kabi mazmunga egaligi diqqatga sazovordir. Ushbu ishda to‘rtta ingliz tarjimonlari, jumladan, Maushali Sherali, Mishary Bin Rashid, Abu Mahdi, Amatul Rohman Omar, O‘zbek tarjimonidan esa Abdulaiz Mansurning Alaq surasini ingliz va o‘zbek tiliga qilingan tarjimasini tahlil qilish orqali ularning tarjimonlik salohiyatini, qaysi tarjima usullardan foydalanganliklari tahlil qilib ko‘riladi. Maqolada tilshunoslik ilmida qabul qilingan usullar, ya‘ni qiyosiy-tarixiy, chog‘ishtirma, tavsifiy, komponent tahlil usullari orqali Al-Alaq surasining leksik-semantik tahlili tadqiq qilindi.

### **Natijalar**

Al-Alaq surasining 1-5 oyatlari - payg‘ambar Muhammad S.A.V.gaga nozil qilingan birinchi oyatlardir. Bu misralarning nozil bo‘lishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmagan, ammo chuqur hikmat gavhari bor. Payg‘ambarlik belgisi bo‘lishdan tashqari, Al-Alaq surasining 1-5 ham insonlar hayotida bilim olishlari uchun qo‘llanmadir. Islom ta‘limi binoga o‘xshasa, Al-Alaq surasining 1-5 oyatlarini tuzilishi ilmga oid binoning poydevori hisoblanadi. Bizga ma‘lumki, fanning asosiy tuzilishi fan taraqqiyotining poydevoridir.

Ushbu sura bilan fanning asosiy tuzilishi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud. A-Alaq surasining 1-5 oyatlarida uch semantik ko‘rinishi tahlil qilindi. Birinchisi, matn jihatidan besh oyat ilmni Xudodan Muhammad ko‘rgan narsaga aylantirish jarayonini tushuntiradi. Ikkinchisi, ramziy ma'noda besh oyat ilmning asosiy tuzilishini, ya'ni, gnoseologiya, dunyoqarash va mafkurani anglatadi. Uchinchisi, kontekst nuqtai nazaridan bu besh oyat islom ta'limida ilm-fan rivojining poydevori sifatida bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega. Ushbu oyatda aks ettirilgan reflektiv dialog orqali insonning o‘zini yaratuvchisi bilan bog‘laydigan ongni tushunish mumkin. Ushbu oyatni talqin qilishda bir nechta talqinlar ishora/ramziy yondashuvdan foydalanadi. Ular orasida Al-Maragiy o‘qishga buyruqning ramziy ma’nosi, “Alloh taolo o‘zi uchun noma’lum bo‘lgan ilmni o‘qish orqali berishidir”-dedi.

1.Maushali Sherali	2.Mishary Bin Rashid	3. Abu Mahdi	4. Amatul Rohman Omar
<p>In the name of Allah, the Gracious, the Merciful</p> <p>1. Convey thou in the name of thy Lord Who created,</p> <p>2. Created man from a clot of blood.</p> <p>3. Convey! And thy Lord is Most Generous</p> <p>4. Who taught man by the pen,</p> <p>5. Taught man what he knew not</p>	<p>In the name of Allah, The entirely Merciful, The Especially Merciful.</p> <p>-Recite, in the name of your Lord who created –</p> <p>-Created man from a clinging substance.</p> <p>-Recite, and your Lord is the most Generous-</p> <p>-Who taught by the pen-</p> <p>-Taught man that which he knew not.</p>	<p>In the name of Allah , The Entirely Merciful.</p> <p>1. Read, 'O Prophet,' in the Name of your Lord Who created—</p> <p>2. created humans from a clinging clot.<sup>1</sup></p> <p>3. Read! And your Lord is the Most Generous,</p> <p>4. Who taught by the pen,</p> <p>5. Taught humanity what they knew not.</p>	<p>With the name of Allah, Most Gracious, Most Merciful.</p> <p>1. Proclaim! (or read!) With the name of your Lord Who created (all the universe),</p> <p>2. Who (also) created human being from a clot (-germinating-cell).</p> <p>3. Proclaim, for your Lord is the Most Benignant;</p> <p>4. Who taught knowledge by means of the pen,</p> <p>5. He taught human being what he did not know.</p>



Ko'rib turganimizdek 4 ta tarjimon alaq surasining 1- oyat buyruq maylidagi "Iqro" so'zini arabchadan o'zbek tiliga Abdulaziz Mansur tomonidan "O'qing" deb adekvat tarjima qilingan so'zni 4 xil ko'rinishda ekspressiv ma'no yoki kontekstual tarjima jihatdan tarjima qilgan, ya'ni, 3 ta tarjimon "Read" – O'qing so'zi o'rniga "convey"-**"yetkamoq, bildirmoq, ifodalamoq"**, "Proclaim" – **"E'lon qilmoq, farmon bermoq, amr qilmoq"**, "Recite"-**"qiroat qilmoq, yoddan aytmoq"** so'zlaridan foydalandi.

### Munozara

Bizga ma'lumki tarjimon biror bir matn yoki she'rni tarjima qilishda umumiy ma'nodan uzoqlashmasdan ortiqcha bo'rtirmasdan, asliyatni o'quvchilarga yetkaza olsa u vazifasini uddalagan bo'la oladi. Yuqoridagi tarjimonlar ham qaysidir ma'noda vazifasini uddalay olishgan. Faqat so'zni tanlashdan oldin so'zma so'z tarjima qilishdan qochib, asosiy mazmuni yetkazishga harakat qilishgan holos. Buning isboti tariqasida "Recite" so'zidan foydalangan tarjimonni aynan nega bu so'zni tanlaganligiga tarixiy faktorlarga tayangan holda quyidagicha tahmin berish mumkin. Alaq surasi nozil qilinganda Muhammad (SAV) bilan farishtalarning suhbatini ushbu suraning nozil bo'lish tarixida ma'lum qilingan. O'sha paytda **"Ey Muhammad! Yaratgan Rabbingiz nomi bilan o'qing"** deyilgan hitobda, ul kishi o'qishni bilmaymanku deb 3 marta aytganlar farishtalar 3 marta yana o'qing „men aytgan so'zlarni qiroat qilib izimdan ayting“deyishganli sahih kitoblarda keltirilgan. Bundan kelib chiqib tarjimon oldidagi vazifasini his qilgan holda islom dinini, Qur'oni Karimni o'rganishga qiziquvchilarni oldida savol paydo bo'lmasligi, dini, madaniyati, o'z ona tilisining ichki til imkoniyatlari va strukturalaridan kelib chiqqan holda, shuningdek, asosiy mazmuni osonroq yetkazish uchun ushbu suraning nozil bo'lish tarixini hisobga olgan va kontekstual tarjimadan foydalangan.

Shu bilan bir qatorda "Proclaim" va "Convey" so'zlaridan foydalangan mufasssirlar Maushali Sherali va Amatul Rohman Omar, "Iqro" so'zini denotative ma'nosi atrofidagi konnatativ ma'no, ya'ni "o'qishlikka buyurish, amr qilish yoki bu habarni barchaga yetkazish va amal qilish" ma'nolarini hisobga olgan holda tarjima qilishganliklarini anglash mumkin.

1-oyat) **Yaratgan Parvardigoring nomi bilan o'qing.** Ushbu oyat bilan bog'liq bir qancha tafsirlar mavjud, jumladan, Qur'onni Alloh nomi bilan o'qish amri, ehtiyojlarni qondirish uchun yordam so'rash, din va dunyo haqida. Yana bir talqin bu – amrdir.

Demak, bu oyatning denotativ ma'nosi yoki kelib chiqishi umumiy o'qish buyrug'i yoki Rabbim nomi bilan boshlangan umumiy o'qish buyrug'idir. Denotativ ma'no ortida bu



oyatning ma'nosi yoki yashirin ma'nosi bor. Ba'zi talqinlar bu oyatning konnotativ ma'nosini ochib berishga harakat qilib, Xudo yaratgan narsadan haqiqat ob'ektini o'qishga harakat qiladi. Boshqa talqin – bu hayot ne'matlarini izlash uchun o'qishga amr qilish, ya'ni kitob o'qish sivilizatsiya yaratishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, Xudo nomi bilan o'qish ruhiyatni mustahkamlaydi. O'qishdan maqsad nafaqat ilm olish, balki Xudoni bilishdir. barcha mavjud voqeliklarda ifodalangan kim. Umuman olganda, konnotativ ma'no ma'naviy ongga asoslangan bilimga intilishdir, degan xulosaga kelish mumkin.

2 – Oyatda keltirilgan *“U insonni alaqdan yaratdi”* jumlasidagi *“alqa”* so'zi ingliz tilida *“clot”*– *“laxta qon”* degan ma'noni anglatadi. Yuqoridagi tarjimonlar *“clinging of clot, clot of congealed blood, clot (germinating-cell) clot of blood”* so'zlaridan o'z tarjimalarida foydalanganlar. Bu yerda u yoki bu tarjimon mazmundan uzoqlashmagan. Bir so'zning ma'nosi atrofida tanlab olinganligini ko'rish mumkin.

3- oyatda keltirilgan *“Robbing Karamlilarning karamlisidir”* jumlasini *“Thy Lord is Most Generous, your Lord is the Most Benignant; thy Lord is Most Bountiful,”* kabi ortirma sifatlar va mubolag'a so'zlaridan tarjimonlar foydalanishgan. Ingliz tilida ushbu sifatlarning tarjimasiga nazar solinsa, *“generous – saxiy, benignant- muloyim va mehribon, bountiful – o'ta saxiy, qo'li ochiq”* degan ma'nolarga egadir.

4- oyatda *“U, qalam bilan ilm o'rgatgandir”* kalomi esa ingliz tilida barcha tarjimonlar „ by the pen, by means of the pen, the use of the pen “ so'zlaridan foydalangan . Shu yerda arab tilidan ingliz va o'zbek tillariga tarjima qilingan ushbu kalomni tahlil qilib ko'rilsa, o'zbek tilidagi versiya adekvat tarjima hisoblanadi. Lekin bu bilan ingliz tarjimonlarning versiyasini xato deyishning o'zi xato. Sababi bu yerda yana ikki tilda ushbu tarjimani o'quvchilar uchun tushunarli bo'lish va asliyatdan uzoqlashmay ma'noni yetkazish vazifasi yotibdi. O'zbek tili madaniyatida, „qalam „ yozish” uchun ishlatiladigan o'quv materiali hisoblanadi va ushbu fikrni isbotlash uchun juda ko'p misollar berish mumkin. Namuna o'rnida *“Qo'lingga birinchi bor qalam tutishni o'rgatgan –bu ustozdir”* jumlasida qalam yozishda ishlatiladigan narsa sifatida ishlatilgan. Ammo hozirgi kundagi biz ishlatayotgan rus tilidan kirib kelgan *“ruchka”* avto *“ruchka”* so'zi ishlatilgan emas. Buning sababi *“ruchka- o'zlashma so'z hisoblanadi. Qalam so'zi esa tarixan bizning madaniyatimizda qo'llanilgan yozuv materialidir. Islom dini esa biz amal qiladigan din bo'lganligi sababli, juda ko'p suralar, alloh taoloning go'zal ismlarining va ko'plab so'zlarning aynan arab tilidagi versiyasi qon qonimizga singib ketgan.*

Ingliz madaniyatidan kelib chiqqan holda tahlil qiladigan bo'lsak, qalam va *“ruchka”* so'zlari *“pencil”* va *“pen”* deb ataladi va ularning vazifalari turlicha hisoblanadi. Qalam ya'ni *“pencil”* so'zi faqat rasm chizish va bo'yovchi material bo'lsa, *“ruchka”* ya'ni *“pen”* so'zi



yoʻzishda ishlatiladigan oʻquv predmeti hisoblanadi. Mana shu nuqtai nazardan kelib chiqib aytish mumkinki, ingliz tarjimonlarining barchasi konnotativ maʼno boʻyicha **“Pen”** soʻzidan foydalanmagan. Agarda tarjimonlar arab tilidagi qalam soʻzini inglizcha **“pencil”** soʻzidan foydalanmaganlarida, ushbu surani ingliz oʻquvchilari **“U( rasm chizish materiali) qalam bilan oʻrgatgandir”** deb tushungan boʻlar va bu sura tarjimasini notoʻgʻri talqin qilingan boʻlar edi.

5- oyatda keltirilgan **“he taught man who he didn’t know”** yaʼni oʻzbek va arab tilida **„u insonga bilmagan narsasini oʻrgatdi”** **“oyati kalomida umumiy inson nazarda tutilgan boʻlishi mumkin deb , baʼzi tarjimonlar „they”** deb ingliz tilidagi koʻplik olmoshini tarjimalarida keltirgan . Yaʼni **“he taught man who they didn’t know”** tarzida. Tahlillarga koʻra tarjimonlar yana kontekstual tarjima qilishga urinishgan yaʼni Jabroil farishta va paygʻambarimiz Muhammad (SAV) bilan oʻzaro ushbu suraning nozil boʻlish tarixidan habardor holda va Muhammadning Alloh taoloning elchisi sifatida dastlab oʻziga va barcha qavmlarga ushbu bilimni yetkazish amri boʻlganligi bois suralarda unga nisbatan **“he “** olmoshidan foydalanishgan .

Alaq surasini semantik tahlil qiladigan boʻlsak, oʻqituvchilik – bu ilmiy faoliyat, qalam esa fanni rivojlantirish uchun vosita, oʻqitish orqali haqiqatda olingan turli maʼlumotlar tahlil qilinadi va bilim va texnologiyaga aylanadi, shuningdek, bilimlarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish amalga oshiriladi. Ushbu surani talqin qilish boʻyicha bir nechta ramziy yondashuvlar mavjud. Ular orasida Al- Maragiy oʻqishga buyurganlikni ramziy maʼnosi Alloh taolo oʻzi uchun nomaʼlum boʻlgan ilmni oʻqish chorlashdir- dedi. Obid Al-Lobiriy ham bu oyatning ramziy maʼnosini 2 tushunchani bogʻlash orqali tushuntirgan. Yaʼni, insonning oʻrganishga boʻlgan ongi, koinot belgilari va oʻzi ekanligi ramziy maʼno hisoblanib, oʻqish va maʼnaviyatni anglash bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan ratsionallik haqida ong shakllanadi. Ratsionallik –insonning turli hayotiy muommolarini hal qilish uchun tahlil qilish va farqlash bilimlarni ishlab chiqarish qobiliyatini anglash demakdir. Boshqalardan farqli oʻlaroq, Tabasabiy ramziy maʼno allohning buyuk qudratini oʻz maxluqotlariga boʻlgan gʻamxoʻrligini bildiradi deb tushuntiradi.

### **Xulosa**

Maʼlumki Qurʼoni Karim tarjimasini murakkab ishdir va uning mutlaq adekvat tarjimasini hatto arab tilida ham yoʻqligi sahih hadislarda keltirilgan. Ushbu ishda har ikki tilda tarjimonlar turli tarjima usullaridan foydalanmaganliklarini guvohi boʻlish mumkin. Abdulaziz Mansurning oʻzbek tiliga qilgan tarjimasini ingliz tarjimonlarining tarjimasiga qaraganda asliyatga yaqinroq va qisman adekvat ekanligi aniqlandi. Buning sababi bizning diniy maʼnaviy va maʼdaniy kelib chiqishimizdir.



Yuqoridagi yondashuvlardan xulosaga kelish mumkinki, bu oyatlarning belgisi Qur'onni o'qish amri yoki mavjud voqelikdir. Ushbu suraning 1-5 oyatlarida "Islomiy tarbiya qadriyatlarida 3 xil tavsir mavjud bo'lib, bular- O'qish, Yozish va yodlash ma'nolaridir. O'qish – Alaq surasida tilga olingan birinchi ilm olish aspektidir. 4- oyatda esa qalam bilan o'rgatgandir oyati yozish semantikasiga tegishli bo'lsa, Muhammad (SAV) suraning Jabroil farishtaning so'zlarini eshitish va yoddan aytish holatidan kelib chiqqan holatda, ushbu sura negizida ta'limning uch asosiy aspektlar ma'nosini anglash mumkin. Bu holat "nahl" surasining 78- oyatida insonga uchta qobiliyat, ya'ni, eshitish, ko'rish va his qilish borligi ta'kidlangan. Quraysh Shihobning yozishicha, u "Qur'onni asoslash" asarida o'qish va o'rganish amrini Islom nuqta-i nazaridan aniq aks ettirgan. "Bi ismi robbika", ya'ni, "Rabbingiz nomi bilan" deyilgan jumla o'quvchini nafaqat ixlos bilan o'qishi, balki, alloh nomiga zid bo'lgan ishlarga olib kelmaydigan o'qishlarni ham tanlashi talqini ko'rsatiladi. Bu shuni anglatadiki, Islom ta'riflagan va xoxlagan ilm bilan G'arb Yevropa ta'riflagan bilim o'rtasida farq bor. Islom sha'riati ilmga katta e'tibor qaratadi. Ko'plab oyatlar musulmonlarni ilm olishga buyuradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Maushali Sher Ali. The Holy Qur'an – Arabic text and English translation.
2. Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolar tarjimasini.
3. H. Usmonova, Islom dini asoslari va ma'naviyati. Guliston, 2015.
4. Prof. Dr. Muhammad Ali Alkhuli. "A dictionary of islamic Terms"
5. Hoshimova N.A Ingliz va o'zbek tillarining funksional uslublari. 2021
6. Sh. M.Sultonova. Diniy leksika diniy frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida
7. A. V. Kunin. English –Russian phraseological dictionary.
8. U.Y.Qo'ziyev "O'zbek tilidagi izohli lug'atlarda o'zlashma so'zlar tadqiqi"
9. Narzullayeva Dilfuza. "The Main Directions of Theolinguistic Research In Modern Linguistics." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 32.32 (2023).
10. Narzullayeva D. Theolinguistics in Modern Religious Discourse //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 30. – №. 30. 5.

